

NEGA 1 DOLLAR 7 SO'M EMAS

Turdialiyev Ashraf

Toshkent davlat iqtisodiyot Universteti Samarqand filiali,
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi talabasi.

Xasatullayev Nodirbek

Toshkent davlat iqtisodiyot Universteti Samarqand filiali,
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14307518>

Annotatsiya. Ushbu maqola inflatsiyaning iqtisodiy tizimdagi o'rni, sabablari va oqibatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi pul siyosati tajribasi keng yoritiladi. Inflatsiya tushunchasiga turli iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflar keltirilgan. Shuningdek, maqolada inflatsiyaning sabablari – davlatning noto'g'ri iqtisodiy siyosati, monetar va fiskal siyosatdagi muammolar, tashqi iqtisodiy omillar, talab va taklifning notengligi kabi jihatlar chuqur tahlil qilingan. Inflatsiyaning natijalari esa aholi turmush darajasining pasayishi, korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy holatiga ta'siri, iqtisodiy barqarorlikka putur yetkazishi kabi holatlar orqali tahlil qilinadi. Maqolada inflatsiyani nazorat qilish usullari, xususan, inflatsion targetlash, monetar siyosatni muvozanatlashtirish va narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha xalqaro va milliy tajribalar keltirilgan.

O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi yillarda inflatsiyani kamaytirish yo'lidagi islohotlari, pul islohati (denominatsiya), milliy valyuta barqarorligini ta'minlash choralari alohida qayd etilgan.

Kalit So'zlar: inflatsiya, deflyatsiya, sudraluvchi inflatsiya, shiddatli inflyatsiya, giperinflatsiya, inflyatsiya ta'siri, monetar siyosat, inflatsion targetlash, denominatsiya.

WHY 1 DOLLARS NOT 7 SOMS

Abstract. This article is aimed at studying the place, causes and consequences of inflation in the economic system, in which the experience of monetary policy of Uzbekistan after independence is widely covered. Definitions given by various economists are given to the concept of inflation. The article also deeply analyzes the causes of inflation - wrong economic policy of the state, problems in monetary and fiscal policy, external economic factors, imbalance of supply and demand. The results of inflation are analyzed through such circumstances as the decrease in the standard of living of the population, the impact on the economic condition of enterprises and organizations, and damage to economic stability. The article presents international and national experiences on inflation control methods, in particular, inflation targeting, monetary policy balancing and price stability. Uzbekistan's reforms to reduce inflation in the years after independence, monetary reform (denomination), and measures to ensure the stability of the national currency are noted separately.

Key words: inflation, deflation, creeping inflation, severe inflation, hyperinflation, inflation effect, monetary policy, inflation targeting, denomination.

ПОЧЕМУ 1 ДОЛЛАР, А НЕ 7 СОМ

Аннотация. Данная статья направлена на изучение места, причин и последствий инфляции в экономической системе, в которой широко освещен опыт денежно-кредитной политики Узбекистана после обретения независимости. Понятию инфляции даны

определения, данные различными экономистами. В статье также глубоко анализируются причины инфляции - неправильная экономическая политика государства, проблемы в денежно-кредитной и фискальной политике, внешнеэкономические факторы, дисбаланс спроса и предложения. Результаты инфляции анализируются через такие обстоятельства, как снижение уровня жизни населения, влияние на экономическое состояние предприятий и организаций, ущерб экономической стабильности. В статье представлен международный и национальный опыт методов контроля над инфляцией, в частности, инфляционного таргетирования, балансирования денежно-кредитной политики и стабильности цен. Отдельно отмечены реформы Узбекистана по снижению инфляции в годы после обретения независимости, денежная реформа (деноминация), а также меры по обеспечению стабильности национальной валюты.

Ключевые слова: инфляция, дефляция, ползучая инфляция, жесткая инфляция, гиперинфляция, инфляционный эффект, денежно-кредитная политика, инфляционное таргетирование, деноминация.

Kirish: Inflatsiya haqida turli iqtisodchi olimlar turli ta'rif berishgan: Inflyatsiya – bu pul massasining tovar aylanmasi ehtiyojlariga nisbatan ortib ketishi natijasida pul birligining qadrsizlanishi va shunga mos ravishda tovar narxlarining o'sishidir

Inflyatsiya - lotincha “inflatio” so'zidan olingan bo'lib, “shishish”, “ko'tarilish” degan ma'nolarni anglatib, mamlakatdagi tovar va xizmatlar bahosi umumiy darajasining oshishi tushuniladi. Narxlarning umumiy darajasi ko'tarilishi natijasida mamlakat pul birligi xarid qobiliyatining pasayishi ro'y beradi. Bu esa o'z navbatida, davlat pul birligining qadrsizlanishiga olib keladi.

Xo'sh pulning qadrsizlanishi deganda nima tushuniladi?

Pulning qadrsizlanishi deganda, bir xil miqdordagi pulga vaqti kelib kamroq bo'lgan tovar va xizmatlarni sotib olish, ya'ni sotib olinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdorining vaqti kelib kamayishi tushuniladi.

Misol uchun, yilning boshida 100 ming so'mga sotib olish mumkin bo'lgan kundalik iste'moldagi tovar va xizmatlarning miqdori yilning oxiriga kelib kamayadi. Bu esa 100 ming so'mga yilning oxirida yilning boshidagiga nisbatan xuddi o'sha tovar va xizmatlarni kamroq miqdorda sotib olish demakdir. O'z navbatida inflatsiya darajasiga qarab 3 turga bo'linadi:

1. Sudraluvchi inflatsiya - (inflatsiya darajasi 5%- 10% bo'lgan holatda kuzatiladi)
2. Shiddatli inflyatsiya - (inflatsiya darajasi 10%- 200% bo'lgan holatda kuzatiladi)
3. Giperinflatsiya - (inflatsiya darajasi 200%dan katta bo'lgan holatda kuzatiladi)

Gperinflyatsiyaga misol qilib 1923-yildagi Germaniyada 2950%li inflatsiya bir oyda kuzatilgan yoki 1994-yildagi Yugoslaviya, ushbu davlatda 313 000 000%ni ko'rsatgan

Deflyatsiya: inflyatsiya davrida chiqarilgan muomaladagi ortiqcha qog'oz pulni kamaytirish, davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul-kredit tadbirlari, ya'ni inflyatsiyaga teskari holat hisoblanadi va bu vaziyatda pul padrlilanib narxlar pasaya boshlaydi.

Bir qarashdan iqtisodiyotga foydalidek tuyulsa ham uzoq vali muddatda bu iqtisodiyotga juda katta zarar kelitiradi chunki insonlar pullarini ishlatmay saqlab tursa keyinroq narx tushadi deb saqlaydi va bu bozorlarda savdo hajmi tushadi, tadbirkorlarga ishlab chiqarish uchun rag'bat kam bo'ladi.

Inflatsiya oqibatlarini va omillari: Ko'plab iqtisodchilar tomonidan mamlakatlar tanazzuli sabablari so'ralganda ular shubhasiz inflatsiya va ishsizlik deb javob qaytaradi. Chunki inflatsiya nafaqat istemolchilarning balki ishlab chiqaruvchilarning ham xarid qobiliyatini pasaytiradi. Bu vaziyatda shunaqa bog'liqlik borki ishlab chiqaruvchilar uchun xom ashyo narxi oshsa albatta bozordagi tovarlar narxi ham oshadi. Aslida bunga keragidan ortiq pul emissiyasi sabab bo'ladi, sodda qilib tushuntiradigan bo'lsak bozorda 100 so'mlik tovar va xizmatlar mavjud lekin markaziy bank tomonidan 120 so'm pul emessiya qilingan bu o'z – o'zidan inflatsiya ya'ni narx oshishiga olib keladi. Inflatsiyaga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi, ular ichki va tashqi omillar.

Ichki omillar:

- Monetar siyosat
- Xo'jalik faoliyati

Inflyatsiyaning ichki omillari monetar pul siyosati bilan va xo'jalik faoliyati bilan bog'liq turlarga bo'linadi. Xo'jalik faoliyati bilan bog'liq omillar bu xo'jalik va iqtisoddagi mutanosiblikni buzilishi, ishlab chiqarishda yakka hukmronlikka yo'l qo'yish, iqtisodning siklik rivojlanishi, investitsiyalashda nomutanosiblik, baholarni tashkil qilishda davlatning yakka hokimligi, kredit siyosatining noto'g'ri olib borilishi va boshqalar hisoblansa, pul bilan bog'liq omillarga davlat moliyasi sohasidagi krezislar, davlatning byudjet defitsiti, davlat qarzlarining o'sishi, pul emissiyasi, pul muomalasi qonunining buzilishi, kreditlashda avtomatizmga yo'l qo'yish va boshqalar kiradi. Inflyatsiyaning tashqi omillariga jahon iqtisodiyotida bo'lgan krezislar, (xom - ashyo, yoqilg'i, valyuta bo'yicha) davlatning valyuta siyosati, davlatning boshqa davlatlar bilan tashqi iqtisodiy faoliyati, oltin va valyuta zaxiralari bilan bo'ladigan noqonuniy operatsiyalar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Inflatsion targetlash: "Target" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "maqsad" degan ma'noni anglatadi. Inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi o'rnatiladi va inflyatsiyani pasaytirishda samarali vosita sifatida foydalaniladi. Inflyatsion targetlash rejimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, markaziy bank kelgusi davr uchun inflyatsiya maqsadi va inflyatsiyaning targetdan siljish oralig'ini oldindan e'lon qilishi lozim. Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: inflyatsiya targeti qanday aniqlanadi va o'rnatiladi? Inflyatsion targetni belgilashda qanday omillar hisobga olinadi? Nima uchun mazkur rejimida pul-kredit siyosati yuritayotgan davlatlarda inflyatsiya targeti turlicha belgilangan?

Ushbu savollarga javob topish maqsadida chexiyalik iqtisodchilar Roman Xorvatx va Yakub Matejular 2011-yildagi tadqiqotida 19 ta davlatda inflyatsiya targetini belgilashda hisobga olinadigan omillarni tahlil qilishgan. Ular "mamlakatlar inflyatsiya bo'yicha targetni tanlashda o'tgan davrlardagi inflyatsiya darajasi, uning tebranuvchanligi, yalpi ichki mahsulot o'sishi va tashqi inflyatsiya darajasi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga oladi" degan umumiy xulosaga kelishgan.


O'zbekistonda pul siyosati va inflatsiya: O'zbekiston Respublikasi 1991 yil 31 avgustda mustaqillikka erishgani e'lon qilingach, mamlakatda sovet rubli pul birligi sifatida muomalada qolavergan edi.

1992 yilning yanvaridan iste'mol bozorini himoyalash va mahsulotlarni faqat O'zbekiston fuqarolariga sotish uchun bir martalik kuponlar bosib chiqarilgan. 1993 yilning 15 noyabrida so'm-kupon chiqarilganidan so'ng 1 hafta o'tib — 22 noyabrgacha gazeta qog'ozida chop etilgan va tashkilotining muhri uriladigan kartochkasi qirqib olinuvchi bir martalik kuponlar amal qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi hududida parallel to'lov vositasi sifatida «so'm-kuponlar»ni muomalaga kiritish to'g'risida»gi 1993 yil 12 - noyabrdagi №550-sonli qaroriga ko'ra, ichki bozorni ortiqcha rubl massasidan himoyalash, aholiga pul mablag'larini to'lashni o'z vaqtida ta'minlash maqsadida 1961–1992 yillarda amalda bo'lgan sovet rubliga 1:1 nisbatda 1993-yil 15-noyabrdan boshlab muomalaga kiritiladi. So'm-kupon Angliyadagi «Harrison & Sons Ltd» bosmaxonasida chop etilgan. So'm-kuponlar 9,5 oy muomalada bo'lib, 1994 yilning 1 iyulidan boshlab O'zbekistonning milliy valutasini — so'm muomalaga kiritilganidan so'ng ham, 1994 yilning 1 avgustiga qadar amal qilgan.

O'zbekistonning amaldagi milliy valutasini so'm — O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 1993 yil 3 sentabrdagi №952-XII qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 iyundagi PF-870 sonli farmoniga binoan, 1994 yilning 1 iyulida, o'zigacha amalda bo'lgan so'm-kuponga 1:1000 nisbatda muomalaga kiritilgan. 1994 yilda muomalaga kiritilgan 100 so'mgacha bo'lgan jamiki qog'oz pullar Germaniyaning «Giesecke & Devrient» firmasida chop etilgan. (Hozir bu yerda YeI valutasini — yevro ham chop etiladi). 1997 yili muomalaga kiritilgan 200 so'mlikdan boshlab, keyingi barcha kupyuralar Toshkentdagi «Davlat belgisi» DICHB davlat korxonasi bosilmoqda.

So'm muomilaga kirgan payt ya'ni 1994-yil 1-iyul kuni 1 USD 7 so'm bolgan 30 yildan keyin hozirgi kunga kelib 1 USD 12 500 so'm bo'ldi shuncha vaqt davomida bizing milliy valyutamiz qay tarzda buncha qadrsizlandi (1700 marta) va bunga nimalar sabab bo'lgan?



Yillar mobayida xronologiyasi:

Xulosa: Inflyatsiya mamlakat hududida pul birligi qadrsizlanganda yuzaga keladi va albatta uni oldini olish va bartaraf etish bo'yicha hukumatimiz hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomidan yuqorida keltirib o'tilgan kerakli chora - tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda inflyatsiya ko'rsatkichi yildan yilga pasayib kelmoqda. Shunday ekan bizning ishonchimiz komilki, biz tez orada ushbu maqsadga erishamiz. Nega 1 USD 7 so'm emasligi sababi ham inflatsiya ya'ni bu vaziyatda ham har doimgi qoida ishlaydi Nima ko'p bolsa qardi tushadi agar biz qarzlarni to'lish va iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun pul emissiyasidan boshqa yo'l topsak, bundan tashqari eksport hajmini oshirib mamlakatda boshqa valyutalar kirib kela boshlasa so'm qiymati oshadi va biror kunga kelib ya'na 1 USD 7 so'm bo'lib qolishi mumkin.

REFERENCES

1. Iqtisodiyot nazariyasi Sh. Shodmonov
2. Hyperinflation article <https://www.cnbc.com/2011/02/14/The-Worst-Hyperinflation-Situations-of-All-Time.html>
3. Finlit.uz sayti <https://finlit.uz/uz/articles/monetary-policy/inflation-targeting/>
4. G'ulomov, S. S., & Mamadqulov, S. M. (2018). *Makroiqtisodiyot*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
5. Karimov, M. M., & Norqulov, S. N. (2017). *Pul va kredit*. Toshkent: Iqtisodiyot.
6. Ergashev, Q. A. (2020). *Moliyaviy iqtisodiyot asoslari*. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.
7. Mishkin, F. S. (2019). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. Pearson Education.